



Mirzayeva Farog'at Odiljonovna,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Pedagogika kafedrası dotsenti

OLIV TA'LIM TIZIMIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHGA QO'YILAYOTGAN TALABLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada Oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirishga qo'yilayotgan talablar, oliy ta'lim tizimini isloh qilish jarayonidagi islohotlar, o'quv-me'yoriy hujjatlarning yangi avlodini yaratish, talabaning mehnat intensivligini hisobga olish, bitiruvchilarning akademik va kasbiy moslashuvchanligini rivojlantirish, bilimlarni o'zlashtirishning intensiv usullarini joriy etishda kredit-modul tizimini joriy etishini o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: bilim, intensiv, kredit, kadr, kompetensiya, talab, ta'lim, ta'lim sohasidagi islohotlar, sifat.

Аннотация. В данной статье рассматриваются требования, предъявляемые к повышению качества образования в системе высшего образования, реформы в процессе реформирования системы высшего образования, создание нового поколения учебно-нормативных документов, учет трудоемкости студента, развитие академической и профессиональной гибкости выпускников, внедрение кредитно-модульной системы при внедрении интенсивных методов усвоения знаний.

Ключевые слова: знания, интенсивность, кредит, персонал, компетентность, спрос, образование, реформа образования, качество.

Annotatsiya. This article discusses the requirements for improving the quality of education in the higher education system, reforms in the process of reforming the higher education system, the creation of a new generation of educational and regulatory documents, taking into account the student's labor intensity, the development of academic and professional flexibility of graduates, the introduction of a credit-modular system when introducing intensive methods of knowledge acquisition.

Keywords: knowledge, intensity, credit, personnel, competence, demand, education, education reform, quality.

Kirish. O'zbekiston oliy ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida milliy malaka ramkasining joriy etilishi oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashda yangi davrni boshlab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-sonli Farmoniga muvofiq Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 30-iyundagi 357-sonli buyrug'iga asosan 2020–2021-o'quv yilidan

respublika oliy ta'lim muassasalari kredit-modul tizimiga o'tdi¹.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 26-moddasida "Ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847 sonli qaroriga muvofiq Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 30-iyundagi 357-sonli buyrug'i.

vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlaridir. Ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari o'z vakolatlari doirasida: ta'lim sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiradi; ta'lim sohasidagi tarmoq davlat dasturlarini ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi; ta'lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtiradi va ularga uslubiy rahbarlik qilishni amalga oshiradi; davlat ta'lim standartlari (shu jumladan, maktabgacha ta'lim va tarbiya davlat standarti) va davlat ta'lim talablarida kadrlarning ma'lumoti darajasiga va kasbiy tayyorgarligi sifatiga qo'yilgan talablarning ta'lim tashkilotlari tomonidan bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi; davlat ta'lim standartlari (shu jumladan, maktabgacha ta'lim va tarbiya davlat standartini) va davlat ta'lim talablari ishlab chiqilishini ta'minlaydi va ularni tasdiqlaydi; ta'lim oluvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini baholash tartibini belgilaydi; professional ta'limning kasblar va mutaxassisliklar, oliy ta'limning bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari, shuningdek, bilim sohalari va ta'lim sohalari ro'yxatini belgilaydi; ta'lim-tarbiya jarayoniga o'qitishning ilg'or shakllari, yangi pedagogik texnologiyalar, o'qitishning texnik va axborot vositalari joriy etilishini ta'minlaydi; ta'lim tashkilotlarida kadrlarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi, o'quv dasturlarini takomillashtiradi; o'quv adabiyotlarini tayyorlash va nashr qilishni tashkil etadi; ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin² ekanligi belgilab qo'yilgan².

Pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni joriy qilgan holda zamonaviy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko'tarish, shuningdek, pedagogika sohasida ta'lim, ilm-fan va amaliyot uyg'unligini ta'minlash maqsadida 2022-yil 21-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy

² O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr. <https://lex.uz/docs/-5013007>

ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-289-son qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarining ta'lim dasturlarini xorijiy mutaxassislar bilan hamkorlikda qayta ko'rib chiqish va ularni Milliy malaka ramkasi, Ta'limning xalqaro standart klassifikatori (MSKO-2011), o'quv rejaları va ta'lim dasturlarini bir-biriga muvofiqlash vazifalari qo'yildi³.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ta'lim sifatini oshirish, universitet faoliyatiga ilg'or ta'lim dasturlarini joriy qilish hamda zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning samarali tizimini yo'lga qo'yish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyunda "Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-290-sonli qarori qabul qilindi⁴.

Mazkur qaror asosida pedagog kadrlarning umumta'lim fanlari bo'yicha bilim darajasi va kasbiy mahoratini baholash hamda baholash natijasidan kelib chiqib, talabgorlarga umumta'lim fanlari bo'yicha tegishli darajadagi milliy sertifikatni berish tartibi joriy etildi.

Bugungi kundagi islohotlar, o'quv-me'yoriy hujjatlarining yangi avlodini yaratish, talabaning mehnat intensivligini hisobga olish, bitiruvchilarning akademik va kasbiy moslashuvchanligini rivojlantirish, bilimlarni o'zlashtirishning intensiv usullarini joriy etishda kredit-modul tizimidan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Asosiy qism. Akademik kreditlar ilk marotaba XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida AQSH universitetlarida joriy etila boshlangan. Ta'lim mazmuni va dasturlarning kreditlarda tashkil etilishi,

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847 sonli qaroriga muvofiq Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 30-iyundagi 357-sonli buyrug'i.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-289-son [qarori. https://lex.uz/docs/-6079561](https://lex.uz/docs/-6079561)

ta'lim jarayonini mustaqil rejalashtirish, monitoring va baholash tizimlarida tub o'zgarishlar kiritish imkoniyatini berdi hamda ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish uchun keng sharoit yaratdi.

ESCT (European Credit Transfer System) 1989-yilda Erasmus dasturi doirasida joriy etilgan bo'lib, Socrat dasturining bir qismi hisoblanadi. Yevropa kredit tizimi muvaffaqiyatli sinovdan o'tib, ayni paytda butun Yevropa oliy ta'lim muassasalari ECTS tizimidan foydalanmoqda.

Dastlab, ECTSdan talabalarni bir oliy ta'lim muassasasidan boshqasiga o'tkazishda kreditlarni hisoblash va o'tkazish uchun foydalanilgan. Ushbu tizim boshqa oliy ta'lim muassasalarining tan olinishiga yordam bergan va shu tariqa Yevropa oliy ta'lim muassasalarida sifatning oshishiga hamda talabalar mobilligi miqyosining kengayishiga olib kelgan. Kredit tizimining ahamiyati oshib borishi natijasida 1999-yil iyunda imzolangan Bolonya deklaratsiyasining eng muhim vazifalaridan biri sifatida mintaqaviy, milliy va Yevropa darajasidagi tizimga aylandi.

Bolonya deklaratsiyasida ECTS tavsiyaviy xarakterga ega tizim sifatida amaliyotga kiritilgan bo'lsa-da, keyinchalik butun Yevropa oliy ta'lim tizimida ommalashadi. ECTS tizimi bugungi kunda Yevropa hududida amal qilayotgan asosiy tizimlardan biri hisoblanib, oliy ta'limning me'yoriy hujjatlarini yaratishda asos bo'lib xizmat qilmoqda.

ECTS tizimidan foydalanish natijasida uning quyidagi afzalliklarga ega ekanligi namoyon bo'ldi:

- oliy ta'lim muassasalari o'rtasida soddalashgan malakaning tan olinishi;
- talaba yuklamasi bajarilishining shaffofligi;
- oliy ta'lim tizimidagi islohotlarga moslashuvchanligi;
- ta'lim trayektoriyasida o'quv dasturlarini o'zlashtirishning moslashuvchan imkoniyatining kengligi.

ECTS tizimi o'quv dasturlarini o'zlashtirishni osonlashtirib, barcha turdagi dasturlar uchun qulay hisoblanadi. ECTS davlatlar o'rtasida, shuningdek, turli universitetlar o'rtasida akademik mobillik uchun keng sharoit yaratadi. Bundan tashqari, tizim o'z-o'zini o'rganish tizimi ham hisoblanadi. Shuning uchun ham "ECTS" so'zining qisqartmasi

"Yevropa kreditini olib o'tish va yig'ish tizimi" degan ma'noni anglatadi.

Yevropa kreditlarni o'tkazish va to'plash tizimining asosiy xususiyatlari quyidagicha:

- ECTS kreditlari;
- talabalar yuklamasi;
- o'quv ko'rsatkichlari;
- ECTS baholash reyting shkalasi.

Kredit-modul tizimi ikkita asosiy vazifani bajaradi:

birinchidan, boshqa oliy ta'lim muassasasidan (yoki boshqa fakultetdan) olingan kreditlar asosida akademik mobillik va moslashuvchanlik shartlari asosida o'qishni davom ettirish;

ikkinchisi – akkumulyativ ta'lim. Talaba ta'limni turli vaqt oralig'ida, universitetlarni o'zgartirishi va turli davrlarda olishi mumkin. Agar ba'zi aniq natijalarning amal qilish muddati ko'rsatilmagan bo'lsa (masalan, ushbu kursning eskirganligi sababli), talaba tegishli akademik daraja (bakalavr, magistr)ni olish uchun zarur bo'lgan miqdorni yig'gunga qadar kreditlar to'planadi. Albatta, kreditni topshirish va kreditlarni to'plash imkoniyati universitetlar o'rtasidagi ishonch va o'quv dasturlarining muvofiqligiga bog'liq.

Barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv ishlarini o'z ichiga olgan o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 54 soat qilib belgilanadi. Kunduzgi o'qish shakli auditoriya mashg'ulotlarining eng yuqori hajmi haftasiga 30 soat qilib belgilanadi. Bir kredit 30 akademik soatga teng deb qabul qilinadi. Auditoriya va mustaqil ta'lim yuklamasi hajmi 50/50 nisbatni tashkil etadi. Talaba har semestrda 30 kredit va 8 semestr davomida jami 240 kredit to'playdi.

O'qishning me'yoriy muddati 4 yil bo'lganda, o'quv jarayoni 120 haftani tashkil etishi, o'quv yilining me'yoriy muddati 1 yil bo'lganda, o'quv jarayoni 30 haftani tashkil etishi zarur. Ushbu o'qishning me'yoriy muddatlari ta'limning barcha shakllari (kunduzgi, kechki, sirtqi)ga taalluqlidir:

1-jadval

O'qishning me'yoriy muddati:

O'quv davrlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun*	Kechki ta'lim shakli uchun*	Sirtqi ta'lim shakli uchun*
Nazariy ta'lim va ilmiy faoliyat*	40–60%	40–60%	40–60%
Uzluksiz mustaqil ta'lim va ilmiy faoliyat	40:60% dan 50:50% gacha	40:60%	20:80%
Ta'til	10–30%	10–30%	10–30%
Ilmiy amaliyot (stajirovka)	15–25%	15–30%	15–30%

Quyida ta'lim dasturlarining metodologiyasi keltirilgan.

Oliy kasbiy ta'lim dasturlari yuklamasining kredit birliklarida ifodalanishi

Oliy kasbiy ta'lim dasturlarini kredit birliklarini ifodalashda quyidagilardan kelib chiqiladi:

Bir kredit umumiy yuklamada 30 akademik soatga to'g'ri keladi va davomiyligi 40 daqiqani tashkil qiladi.

Talabaning haftalik maksimal yuklamasi 54 akademik soatgachani tashkil etadi, ya'ni bu 1,8 kredit birligida ifodalanadi.

Fanlarga kreditlarni berishda o'quv soatlarining belgilangan qoidalarga muvofiq haftalik 30 soat hajmida amalga oshirilishi ta'minlanadi. Kreditlarni berishda fanlar, kurs loyihalari va boshqa baholanadigan ishlar hisobga olinadi.

Amaliyotning bir haftasi 1,8 kreditda ifodalanadi.

Bir semestrda sinov 1 kredit birlikda (3 kun sinovga tayyorgarlik va 1 kun imtihon uchun) ifodalanadi.

Ta'lim standartlariga muvofiq amalga oshiriladigan ta'lim dasturlarida kreditlarni berishda oraliq attestatsiyalar ham inobatga olinadi va ajratilgan kreditlar fan miqyosida belgilanadi.

Yakuniy attestatsiyalarga kredit berish haftalik yuklama hisobidan kelib chiqib beriladi. Bunda 1 hafta 1,8 kreditga muvofiq bo'ladi.

Ushbu kredit birliklarini hisoblash metodikasi asosida:

1 kredit = 27 astronomik soat = 30 akademik soat davomiyligi 40 daqiqani tashkil qiladi;

1 hafta (amaliyot yoki boshqa o'quv ishlari) = 54 akademik soat = 1,8 kreditni tashkil qiladi.

Xuddi shu shaklda yakuniy attestatsiyaning mehnat intensivligi hisoblab chiqiladi:

1 hafta 1,8 kredit birligiga to'g'ri keladi;

O'quv yili 30 hafta, ya'ni 60 kreditni tashkil qiladi;

Sessiyalar kreditlarda ifodalanadi, ya'ni 1 semestrda 1 ta sinov – 1 kredit kursi birligida ifodalanadi.

Oliy ta'limda kredit-modul tizimidan foydalanish ta'lim jarayonini samarali tashkil etish imkoniyatini beradi:

– o'quv jarayonini individual maqsadli tashkil etish, talabalarga individual o'quv rejalarini tuzish, fanlarni o'zlashtirish ketma-ketligini erkin aniqlash, semestrda o'quv mashg'ulotlar jadvalini mustaqil tuzish imkoniyatini yaratadi;

– talabalarining o'quv-tarbiyaviy faoliyati natijalarini baholashning balli-reyting tizimini rag'batlantiradi;

– ta'lim mazmuni o'quv reja, dastur va standartlarni shakllantirish hamda ularning uzluksiz rivojlanishini ta'minlaydi;

– professor-o'qituvchilarga akademik erkinlik berish, shu jumladan, o'qitish metodikasini erkin tanlash huquqi;

– ta'lim xarajatlari hajmini va professor-o'qituvchilar ish hajmining iqtisodiy samaradorligini oshiradi;

– muassasaning ta'lim strukturalari daromadlari va sarf-xarajatlari byudjetini shakllantirishda yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kredit-modul tizimining xarakterlovchi xususiyatlari individual-maqsadli o'quv jarayonini tashkil etish va pedagogik boshqaruvning ilg'or tamoyillari asosida ta'lim jarayonini baholashning balli-reyting tizimi asosida tashkil etilishini ta'minlaydi.

FOYDALINGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr. <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847 sonli qaroriga muvofiq Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 30-iyundagi 357-sonli buyrug'i.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-289-son qarori. <https://lex.uz/docs/-6079561>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyunda "Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-290-son qarori. <https://lex.uz/docs/-6079422>
5. Болонский процесс: Результаты обучения и компетентностный подход (книга-приложение 1) / Под. науч. ред. д-ра пед. наук, профессора В.И.Байденко. М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2009. – 536 с.
6. Mirzayeva F.O. "Kredit modul tizimining amaliyotga joriy etilishi" // Eurasian Journal of Academic Research 2.11 (2022): 479–484.